

YOSH DAVRLARDA IJTIMOIIY VOQELIKKA MUNOSABAT SHAKILLANISHING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Pirmatova Nuriya O'ktam qizi

KIUT Samarqand filiali Psixologiya yo`nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh davrlarda ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishining individual-psixologik xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yosh davri, ijtimoiy vaqelik, ijtimoiylashuv.

Shaxsning ijtimoiy voqelikka nisbatan bildirgan munosabati psixologik nuqtayi nazardan murakkab va ko'p qirrali fenomen hisoblanadi. U o'z ichiga kognitiv (bilish), affektiv (emotsional) va konativ (xatti-harakat) komponentlarni oladi. Ijtimoiy voqelik esa – bu insonni o'rab turgan ijtimoiy muhit, jamiyat hayotidagi jarayonlar, ijtimoiy institutlar, qadriyatlar, normalar va ularning o'zgarishlarini o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Shaxs bu tizimda o'z o'rnini belgilab boradi, unga muvofiq tarzda o'z nuqtai nazarini, ichki hissiyotlarini va xulq-atvorini shakllantiradi.

Ijtimoiy voqelikka munosabat, aslida, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. U orqali inson atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqealarni qanday qabul qilayotganini, ularga qanday baho berayotganini va ularning natijasida qanday harakat qilayotganini aniqlash mumkin. Bu munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuvi, sotsial adaptatsiyasi, ijtimoiy identifikatsiyasi va ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy voqelikka munosabat psixologik jihatdan kognitiv (bilish), affektiv (hissiy) va konativ (xatti-harakat) komponentlar asosida shakllanadi. Ushbu komponentlarning yoshga qarab rivojlanishi har bir davrda alohida tadqiq etilishi lozim. Quyida har bir asosiy yosh bosqichida ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishining asosiy psixologik jihatlari yoritiladi.

Shaxs rivojining ilk bosqichlaridan biri bo'lgan maktabgacha yosh davri (3–6 yosh) bolada ijtimoiy muhitga nisbatan dastlabki munosabatlarning shakllanishi bilan ajralib turadi. Bu davr psixologik rivojlanishning eng muhim pog'onalaridan biri bo'lib, unda bola o'zini shaxs sifatida anglay boshlaydi, atrof-muhit, jamiyatdagi odamlar, voqealar va hodisalarga nisbatan o'zining his-tuyg'ularini namoyon qiladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy voqelikka bo'lgan munosabatlar murakkab psixik jarayonlar majmui sifatida shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola dunyoni emotsional–obrazli idrok orqali o'rganadi. Bu yoshda tafakkur aniq-obrazli xarakterga ega bo'lib, bola atrof-dagi voqelikni bevosita sezgi, ko'rish,

eshitish, ta'm va harakat orqali qabul qiladi. Shu sababli ijtimoiy voqealarni ham, xususan, jamiyatdagi munosabatlar, hodisalar, insonlar orasidagi aloqa, xatti-harakatlar bola tomonidan emotsional ranglarda baholanadi.

Kognitiv rivojlanish nuqtayi nazaridan bu yoshda bola sabab–oqibat aloqalarini to'liq anglay olmaydi. Piagening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, 3–6 yoshli bolalar “preoperatsional” bosqichda bo'lib, ular mavhum fikrlashga qodir emaslar, ularning tafakkuri egotsentrikdir. Bu esa ularni o'zining shaxsiy tajribasi va hissiyotlari asosida ijtimoiy voqelikni baholashga olib keladi.

Maktabgacha yosh davrida affektiv komponent — ya'ni his-tuyg'ular va emotsiyalar ijtimoiy voqelikka munosabatda yetakchi o'rin tutadi. Bola atrofidagi odamlar (ota-ona, tarbiyachi, aka-uka va opa-singillar, qo'shnilar)ga bo'lgan hissiy munosabatlari orqali jamiyatdagi harakatlar va hodisalarga o'z munosabatini shakllantiradi. Ijobiy emotsional tajriba ijtimoiy voqelikka nisbatan ijobiy munosabat, salbiy tajriba esa norozilik yoki himoya pozitsiyasini shakllantiradi.

Bolaning ijtimoiy voqelikka munosabatini shakllantiruvchi asosiy omillar bu — **oila** va **maktabgacha ta'lim muassasasi** hisoblanadi. Oilada bola dastlabki ijtimoiy tajribani oladi. Ota-onaning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy mavqei, jamiyatga bo'lgan munosabati bola ongiga bilvosita singadi.

Bog'cha esa bolani ijtimoiylashuv jarayoniga faol jalb qiladi. Guruhli faoliyat, birgalikdagi o'yin, navbatchilik, madaniy tadbirlar, axloqiy tushunchalar — bularning barchasi bola ongida jamiyatga nisbatan o'ziga xos hissiy va kognitiv munosabatlarni shakllantiradi. Tarbiyachi model sifatida bolaga ta'sir qiladi — uning nutqi, muomalasi, xulqi bolaning ijtimoiy orientatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi.

Ijtimoiy voqelikka sog'lom, ijobiy va empatik munosabat bolalik davridanoq shakllana boshlaydi. Maktabgacha yoshda bu munosabatlar hali mukammal emas, biroq aynan shu bosqichda berilgan tarbiya, muhit va psixologik yondashuvlar shaxsning keyingi hayotidagi jamiyatga nisbatan pozitsiyasini belgilab beradi.

Maktabgacha yosh davrida shakllana boshlagan ijtimoiy voqelikka nisbatan emotsional–obrazli munosabat boshlang'ich maktab yoshida yangi bosqichga ko'tariladi. Endi bola maktab ijtimoiylashuvi doirasiga faol kirib boradi va mustaqil shaxs sifatida ijtimoiy tizimda o'z o'rnini topishga urinadi. Bu davrda bola atrof-muhitdagi voqealarni nafaqat his qiladi, balki ularni tushunishga, baholashga, ularga nisbatan o'z nuqtayi nazarini shakllantirishga harakat qiladi.

Piagening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bu davr “konkret operatsiyalar bosqichi”ga to'g'ri keladi. Bola mantiqiy fikrlash, sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunish, turli ijtimoiy hodisalarni solishtirish, tahlil qilish, umumlashtirishga intiladi. Shu sababli

boshlang'ich maktab yoshi ijtimoiy voqelikka ongli munosabat shakllanishida burilish nuqtasi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiy voqealarni tushunishda real faktlar, bevosita kuzatishlar, tajriba va o'ziga tanish misollarga asoslanadi. Ular uchun voqelikni anglashda konkretlik muhim o'rin tutadi. Misol uchun, bola o'z o'qituvchisini adolatli deb hisoblaydigan bo'lsa, u jamiyatdagi boshqa yetakchilar ham adolatli bo'lishi kerak degan fikrga keladi. Bu umumlashtirishlar hali mukammal bo'lmasada, ijtimoiy tafakkur shakllanayotganidan dalolat beradi.

Boshlang'ich maktab yoshida bola o'zining ijtimoiy munosabatini harakatlar orqali ko'rsatishni boshlaydi. Bu davrda bola ijtimoiy me'yor va qoidalarni o'zlashtirib, ularni ongli ravishda bajarishga intiladi. Misol uchun, u maktabda navbatchilik qilish, kichiklar yoki imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish, jamoat ishlarida ishtirok etish orqali jamiyat a'zosi sifatida o'zini ko'rsata boshlaydi.

Konativ (xatti-harakat) komponentda bola o'z munosabatini konkret faoliyat bilan ifodalaydi. Masalan, maktabda "do'stlik haftaligi" o'tkazilsa, bola undan tashabbus bilan ishtirok etadi, plakatlar tayyorlaydi, do'stlariga sovg'a tayyorlaydi. Bu kabi faoliyatlar bolaning ijtimoiy voqelikka bo'lgan ongli va faol munosabatini shakllantiradi.

Bola o'zining xatti-harakatlari bilan jamiyatda ma'lum qoidalar borligini va ularni bajargan holda ijobiy baho olishini tushuna boshlaydi. Shu orqali u ijtimoiy voqelikda o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Bu esa ijtimoiy javobgarlik hissining shakllanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich maktab davrida bolada "Men kimman?", "Qayerdaman?", "Jamiyatda mening o'rnim qanday?" degan savollar ong osti darajasida paydo bo'la boshlaydi. Bu — ijtimoiy identifikatsiya bosqichidir. Bola o'zini oilasiga, sinfiga, maktabiga, xalqiga tegishli deb his qila boshlaydi. Bu hissiyot uni ijtimoiy hodisalarga nisbatan befarq bo'lmaslikka, faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanishiga olib keladi.

Bu jarayonda bola o'z munosabatini so'z orqali ham ifodalay boshlaydi. Misol uchun, "bu to'g'ri emas", "men bunday qilmas edim", "bu adolatli" kabi fikrlar bolada ijtimoiy me'yorlarga nisbatan ongli baho berish va o'z pozitsiyasini himoya qilish ko'nikmasi rivojlanayotganidan dalolatdir.

O'rta maktab yoshi — bu insonning shaxs sifatida shakllanishida tub burilishlar sodir bo'ladigan davrdir. Psixologik jihatdan bu davr "o'sish, izlanish, ichki dunyo bilan kurash" bosqichi bo'lib, unda bolalik davrining qulay va mustahkam ijtimoiy munosabatlari asta-sekinlik bilan murakkab, noaniq, ko'proq mustaqillik va tanqidiylikni talab etuvchi yangi ijtimoiy muhitga o'zgaradi. Shunday sharoitda o'quvchining ijtimoiy voqelikka nisbatan munosabati ham yangi sifat darajasiga ko'tariladi.

Jean Piaget ta'riflagan "formal operatsiyalar bosqichi" aynan shu yoshga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchining tafakkuri abstraktlikka, nazariylikka va gipotezalar asosida fikr yuritishga o'tadi. Endilikda o'quvchi ijtimoiy voqealarni chuqurroq tahlil qilish, ularning mohiyatini tushunish, sabab-oqibat munosabatlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quvchi bu davrda o'z-o'zini anglashga harakat qiladi. "Men kimman?", "Nega bu dunyoda shunday bo'lmoqda?", "Jamiyat menga nima beradi va men jamiyatga nima bera olaman?" kabi savollar uning ichki dunyosida shakllanadi. Bu savollar esa uni ijtimoiy voqelikka nisbatan mustaqil, ongli va ba'zan tanqidiy munosabat bildirishga undaydi.

Bu yoshda empatiya ham ancha chuqurlashadi. O'quvchi o'z tengdoshlarining his-tuyg'ularini tushunadi, boshqalarning og'riqlariga hamdardlik bildiradi, ijtimoiy adolatsizlik holatlariga norozilik ko'rsatadi. Bu jihat ularning fuqarolik faolligini uyg'otuvchi ichki omillardan biri hisoblanadi.

11–14 yosh davrida o'quvchi o'zining shaxsiy g'oyalari asosida faoliyat yuritishga intiladi. Bu faoliyat turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: maktabdagi tadbirlarda tashabbus ko'rsatish, ijtimoiy loyihalarda qatnashish, kichik guruhlar tashkil etish, ijtimoiy tarmoqlarda o'z fikrlarini bildirish va h.k.

Masalan, atrof-muhitni asrash, bolalar huquqlari, teng imkoniyatlar, ekologik muammolar kabi mavzularda o'quvchi o'z fikrini bildiradi va ular bo'yicha konkret harakatlar qilishga harakat qiladi. Bu holat konativ (xatti-harakatga asoslangan) komponentning ijtimoiy faollik shaklida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

Bu yoshdagi bolalar ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy rollar va ijtimoiy me'yorlarga ongli tarzda moslashishga harakat qiladi. Ular o'zini o'qituvchi, rahbar, adolat himoyachisi sifatida ko'rishni istaydilar va shunga mos xatti-harakatlar namoyon qiladilar. Bu esa ularning ijtimoiy pozitsiyasining shakllanayotganligini bildiradi.

Bu davrda tengdoshlar guruhi o'quvchi uchun asosiy ijtimoiy muhitga aylanadi. Bolaning ijtimoiy voqelikka munosabati ko'pincha uning do'stlari, sinfdoshlari yoki internetdagi guruhlar ta'siri ostida shakllanadi. Shuning uchun, bu davrda o'quvchilarning ijtimoiy voqelikni baholashda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar katta rol o'ynaydi.

Oila esa bu jarayonda yo'naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaydi. Agar ota-ona o'z farzandi bilan ochiq muloqotda bo'lsa, uning savollariga jiddiy yondashsa, bolada sog'lom ijtimoiy qarashlar shakllanadi. Aks holda esa, o'quvchi noto'g'ri ijtimoiy pozitsiyalar yoki ekstremistik fikrlar ta'siriga tushib qolishi mumkin.

O'qituvchining roli esa bu davrda yanada muhimlashadi. U nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy, ijtimoiy, psixologik yetakchi sifatida o'quvchining ijtimoiy dunyoqarashini shakllantiradi. O'qituvchining adolatli yondashuvi, ijtimoiy masalalarga befarq bo'lmasligi,

o'quvchilarning fikrini inobatga olishi — bularning barchasi o'quvchining jamiyatga nisbatan ishonchi va faol pozitsiyasining shakllanishiga xizmat qiladi.

Bu yoshda o'quvchi o'zini faqat oilasining a'zosi yoki sinfning bir qismi sifatida emas, balki kengroq — maktab, mahalla, xalq, hatto insoniyatning bir a'zosi sifatida tasavvur qila boshlaydi. Bu esa uning jamiyatdagi muammolarga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi.

O'smirlik va ilk yoshlik davri inson hayotida jadal psixologik, ijtimoiy va axloqiy o'zgarishlar ro'y beradigan murakkab bosqich hisoblanadi. Bu yosh davrida shaxsiy identifikatsiya, hayotiy pozitsiya, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat hissi kuchayadi. Shu sababli aynan shu bosqichda ijtimoiy voqelikka nisbatan munosabatlar yanada chuqurlashadi, shakl va mazmun jihatidan barqarorlashadi.

Agar o'rta maktab yoshidagi o'quvchi o'zini ijtimoiy guruhlar orqali anglashga harakat qilsa, o'smirlik bosqichida u o'zligini aniq belgilash, shaxsiy hayot yo'lini tanlash va jamiyatdagi rolini ongli ravishda shakllantirishga intiladi. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bu davr "o'zlikka erishish yoki rol chalkashligi" bosqichi bo'lib, shaxs o'zini kimligini aniqlashga urinish orqali ijtimoiy muhitga munosabat bildiradi.

Bu yoshda yoshlar o'zlarining ijtimoiy mavqelarini aniqlashtirishga intiladilar: "Men kimman?", "Nega yashayapman?", "Qanday ijtimoiy qadriyatlar meni belgilaydi?", "Men jamiyat uchun nima qila olaman?" degan savollar ularning ongini band etadi. Bunday savollar orqali u o'zining ijtimoiy voqelikdagi o'rnini anglaydi va bu voqelikka bo'lgan munosabatlar ongli, tanqidiy, axloqiy va faol tus oladi.

O'smirlik davrining eng asosiy psixologik jihatlaridan biri — mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvning kuchayishidir. Bu yoshda shaxs har qanday axborotni tanqidiy tahlil qilishga harakat qiladi, o'z qarashlarini shakllantirishga intiladi. U endi o'ziga taqdim etilgan tayyor fikrlarni emas, balki muhokamalar, dalillar va shaxsiy xulosalar asosida ijtimoiy voqealarga munosabat bildiradi.

Masalan, u siyosiy, iqtisodiy, madaniy muammolar, global tahdidlar (ekologik inqiroz, urushlar, gender tengsizligi, korrupsiya, migratsiya muammolari) haqida fikr yurita boshlaydi. Shu bilan birga, u bu muammolarga o'z pozitsiyasini aniqlaydi: faollik bildiradi, muhokamalarda qatnashadi, ijtimoiy adolatni talab qiladi.

Bu yosh davrida emotsional barqarorlik nisbatan mustahkamlanadi, biroq o'smirlar hali ham hissiyotga boy bo'lishadi. Ijtimoiy voqealarga bo'lgan emotsional munosabatlari ko'pincha keskin, faol va kuchli namoyon bo'ladi. Ular ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik bildiradilar, ijobiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlaydilar, ijtimoiy harakatlarda faol ishtirok etishga intiladilar.

Empatiya bu davrda yanada chuqurlashadi. Endi u nafaqat do'stlarga, balki jamiyatdagi boshqa guruhlariga (nogironlar, muhtojlar, kam ta'minlanganlar, urush qurbonlari) nisbatan

ham rahmdillik ko‘rsatish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu holat ijtimoiy ongning ijobiy shakllanishi, insonparvarlik qarashlarining kuchayganidan dalolat beradi.

O‘smirlar jamiyat hayotida bevosita ishtirok etishni istaydilar. Ular ijtimoiy loyihalar, ekologik harakatlar, ko‘ngillilik faoliyatlari, yoshlar tashkilotlari, blog yuritish, onlayn aksiyalar orqali o‘z fuqarolik pozitsiyalarini bildiradilar. Bu ularning ijtimoiy voqelikka nafaqat fikriy, balki amaliy munosabatini shakllantiradi.

Ayniqsa, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bu yoshdagilar uchun ijtimoiy jarayonlarda qatnashish imkonini kengaytirdi. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda jamiyatdagi voqealarga izoh beradilar, o‘z fikrlarini erkin ifoda qiladilar, jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlar uchun kurashadilar. Shu yo‘sinda ular ijtimoiy o‘zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylanadilar.

Talabalik yoshi – inson hayotidagi mustaqil fikrlash, kasbiy va hayotiy pozitsiyani aniqlash, o‘zini ijtimoiy muhitda tutish strategiyalarini shakllantirish bilan bog‘liq eng mas‘uliyatli bosqichlardan biridir. Bu davr psixologiyada “erkin voyaga yetganlik”, sotsiologiyada esa “ijtimoiy faollik cho‘qqisi” sifatida baholanadi. Talabalik – ijtimoiy voqelikka nisbatan ongli, tanqidiy va faol munosabat shakllanishi, shuningdek, fuqarolik ongining mustahkamlanish davridir.

O‘smirlik davrida boshlangan “Men kimman?” degan savol talabalik yoshi davrida chuqurroq mazmun kasb etadi. Yosh shaxs o‘zligini faqat oilaviy yoki mahalliy muhit orqali emas, balki keng ijtimoiy kontekstda – davlat, millat, insoniyat kontekstida ham anglaydi. Bu esa ijtimoiy voqelikka yondashuvda individual shaxsiy yondashuvni ta‘minlaydi.

Talaba yoshlar o‘zlarini turli ijtimoiy rol va maqomlarda ko‘ra boshlaydilar: kelajakdagi kasb egasi, jamiyat a‘zosi, fuqarolik burchini bajaruvi, ijtimoiy adolat himoyachisi, va h.k. Bularning barchasi ularning ijtimoiy voqelikni qamrab olgan psixik jarayonlar – idrok, tafakkur, emotsiya va ijtimoiy motivatsiyaga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Talabalik davrida ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishi shaxsiy o‘zlikni anglash, ijtimoiy identifikatsiyani mustahkamlash, tanqidiy fikrlashni chuqurlashtirish, qadriyatlar tizimini shakllantirish, ijtimoiy faollik va fuqarolik ongini rivojlantirish orqali kechadi. Bu bosqichda yoshlar jamiyatdagi voqealarga faol, ongli va mas‘uliyatli munosabat bildiradilar. Ijtimoiy voqelik bu yoshdagilar uchun shunchaki tashqi muhit emas, balki shaxsiy va kasbiy o‘zini anglash, hayotiy missiyasini topish, ijtimoiy qadriyatlarni himoya qilish vositasi sifatida tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda o‘sib kelayotgan yoshlarning ijtimoiy voqelikka bo‘lgan munosabati, ularning shaxsiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu jarayonda yoshlarning shaxsiy identifikatsiyasi, guruhga bo‘lgan mansubiyat hissi va ijtimoiy mas‘uliyatni anglash kabi psixologik omillarni hisobga olish zarur. Yoshlarning ijtimoiy ongining shakllanishida

emotsional-intellektual omillar, ularning o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish qobiliyati hamda boshqalar bilan samarali aloqalar o‘rnatish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy identifikatsiya jarayonlari yoshlarning ijtimoiy voqelikka bo‘lgan munosabatini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Yoshlarning o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashish, o‘zlarini jamiyatning faol a‘zolari sifatida his qilishlari, ijtimoiy mas‘uliyatni qabul qilishlari kabi jarayonlar ijtimoiy voqelikka bo‘lgan munosabatni belgilaydi. Bu o‘zgarishlar, yoshlarning o‘z o‘rni va rolini anglashga, o‘zgarishlarga faol qatnashishga va jamiyatda o‘z hissasini qo‘shishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR

Normativ huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Yoshlar siyosatini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. – Toshkent, 2018.
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori “Milliy istiqlol g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirish haqida”. – 2020.
5. “Psixologik xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2021.

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

6. Ahmedov S. Yoshlarda ijtimoiy voqelikka munosabatning psixologik asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
7. Karimova M. Ijtimoiy psixologiya nazariyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
8. Rustamov D. Yoshlarda ijtimoiy identifikatsiya va qadriyatlar tizimi. – Psixologiya va jamiyat, 2021, №3.
9. Saidov B. Yoshlarda ijtimoiy moslashuv va voqelikni qabul qilish. – Ilmiy to‘plam: Ijtimoiy fanlar, 2022.
10. Xolbekova N. Ijtimoiy psixologiya va yoshlar rivojlanishi. – Toshkent, 2020.
11. Tursunov S. Ijtimoiy voqelikni anglash: psixologik aspektlar. – Psixologik ilm-fan jurnali, 2019, №5.
12. Usmonov J. Yoshlarning ijtimoiy voqelikka munosabatlari: empirik tadqiqot. – Fan maqolalari to‘plami, 2021.
13. Kamolova F. Ijtimoiy voqelik va yoshlar psixologiyasi. – Toshkent, 2022.

14. Murodov R. Shaxsning ijtimoiy qadriyat tizimi va uning rivojlanishi. – Psixologiya va madaniyat, 2020.

15. O‘rozov T. Yoshlarda ijtimoiy voqelikka qarshi psixologik moslashuv. – Toshkent, 2021.